

Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari
texnologiyalari kafedrası


OCHIQ DARS E'LONI




ERGASHEV A.A.




02.12.2025.
soat 14:40



Ergashev Azamat Azimovichni Genetika va genomika fani
doirasida “Odam uchun xos dominant yoki retsessiv tipda
irsiylanadigan belgilashiga doir masalalar yechish”
mavzusidagi ochiq dars
E'LONI



Sharof Rashidov ko'chasi 360-uy 114-xona



7B-2024-GURUH
GENETIKA VA GENOMIKA ASOSLARI FANI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Biologiya va qishloq xo‘jalik maxsulotlari texnologiyalari” kafedrasining

№ 5 - sonli yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma

5.12.2025 y

Denov

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o‘qituvchilari

Kun tartibi:

Kafedra mudiri M.Hamroyeva Ergashev Azamatning Biologiya ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich 7B-2024-guruh talabalariga, “Genetika va genomika asoslari” fanidan “Odam uchun xos dominant va retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish” mavzusida o‘tkazilgan ikki soatlik ochiq dars muhokamasini ochiq deb e‘lon qildi.

Eshitildi:

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri dots. M.K.Hamroyeva so‘zga chiqib quyidagi ma‘lumotlarni aytdi:

A.A.Ergashevning “Odam uchun xos dominant va retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish” mavzusida o‘tkazilgan ikki soatlik ochiq darsi bo‘lib o‘tdi. 6-nafar professor o‘qituvchilar dots. Hamroyeva M., b.f.n Xalmuratov M., b.f.f.d (PhD) Sodiqova D., b.f.f.d (PhD) Mammadiyev A., o‘qituvchilar Mardonov SH., Boboxonov M, Qurbonov O ishtirok etdilar.

Ochiq darsda A.A. Ergashev tomonidan dars tashkiliy masalalari aytib o‘tildi. Yangi dars mavzusi va rejasi auditoriya interaktiv doskasiga yozilgan bo‘lib, talabalar davomati hisobga olindi. Dars tematik reja va dasturga muvofiq o‘tildi. O‘qituvchi qoidaga muvofiq darsni boshladi. O‘tgan darsni mustaxkamlash uchun turli interfaol metodlardan foydalanildi, xususan Talabalar guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini oshirish maqsadida talabalar guruhlarga bo‘lindi. Dars davomida Odam uchun xos dominant va retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish sohalari tushuntirildi. Metodlardan “Mening genotipim”, “Pedigree” metodlari qo‘llanildi va Interaktiv usulda “kafedra issiqxonasini” metodidan foydalanildi. Dars jarayonida slaydlardan,

videoroliklardan foydalanildi va talabalar darsga faol qatnashdilar. Dars vaqtlari to'g'ri taqsimlandi va uyga topshiriqlar berildi

Kafedra o'qituvchilari: Mammadiyev A., Mardonov Sh va Boboxonov M ham o'z fikrlarini bildirdilar.

Dars jarayonidan olingan fotosuratlar 1-ilovada berildi

Qaror qilindi:

1. A.A. Ergashevning Biologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 7B-2024-guruh uchun o'tkazilgan, "Genetika va genomika asoslari" fanidan "Odam uchun xos dominant va retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish" mavzusida o'tkazilgan ikki soatlik ochiq darsi namunali deb topilsin.

✓ Kafedra mudiri

Yig'ilish kotibi



dots. M.K.Hamroyeva

D. G'. Sodiqova



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Biologiya va qishloq xo‘jalik maxsulotlari
texnologiyalari” kafedrasining o‘qituvchisi A.A.
Ergashevning 60510100 – Biologiya (turlari
bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 2-kurs 7B-2024-guruh
uchun Genetika va genomika asoslari fanidan «Odam
uchun xos dominant yoki retsessiv tipda
irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish»
mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars
ishlanmasiga

T A Q R I Z

Masalalarni yechishda foydalanilgan algoritmik yondashuv (masala shartini tahlil qilish, genotiplarni aniqlash, chatishtirish sxemalarini tuzish va javobni tahlil qilish) juda samaralidir. Bu talabalarga masalalarni yechishning universal usulini o‘rgatadi.

Materiallarda masalalarning yechilishini ko‘rsatishda Punnett kataklari, nasl-nasab shajarasi (pedigri) diagrammalaridan foydalanish nazariy bilimlarni vizual tushunishni oshiradi va mavzuni yanada oydinlashtiradi.

A.A. Ergashev tomonidan tayyorlangan « Odam uchun xos dominant yoki retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish » mavzusida 2 (ikki) soatlik ochiq darsning maqsadi ta’lim sifatini boshqarish orqali talabalarning fan bo‘yicha yangi tushuncha va dunyoqarashlarini, fikrlash doirasini boyitish hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganish asosida ularda o‘quv, bilim faoliyatiga ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

Muallif mavzuni animassiya, reaksiya mexanizmlari hamda turli xil shaklli rasmlardan foydalanib, mavzuni yaxshi yoritib bergan.


Ushbu ochiq dars materiallari to‘plami yuqori darajada tayyorlangan bo‘lib, "Genetika va Genomika Asoslari" fanidan masalalar yechish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun a‘lo darajadagi metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Materiallar fan doirasidagi barcha talab va me‘yorlarga javob beradi. Materiallar muallifi (yoki jamoasi)ning ushbu dolzarb mavzuni yoritishdagi professional yondashuvi va chuqur bilimi tahsinga loyiqdir.

A.A. Ergashev tomonidan 60510100 – Biologiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 2-kurs 7B-2024-guruhi talabalari uchun tayyorlangan « Odam uchun xos dominant yoki retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish » mavzusi oliy ta’lim sohasidagi islohotlar va bugungi kun talablarini hisobga olib tuzilgan

Termiz davlat universiteti
Botanika kafedrasi dotsenti, b.f.n.:



S. X. Sulliyeva



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari
texnologiyalari" kafedrasining o'qituvchisi A.A.
Ergashevning 60510100 – Biologiya (turlari
bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 2-kurs 7B-2024-guruh
uchun Genetika va genomika asoslari fanidan «Odam
uchun xos dominant yoki retsessiv tipda
irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish»
mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars
ishlanmasiga

T A Q R I Z

60510100 – Biologiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga Taqdim etilgan ochiq dars materiallari to'plami "Genetika va Genomika Asoslari" fanining eng muhim va amaliy ahamiyatga molik bo'limlaridan biri – odamda irsiyat masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Materiallar o'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash, xususan, tibbiy genetika masalalarini yechish bo'yicha mustahkam asos yaratishga qaratilgan

A.A. Ergashev tomonidan «Odam uchun xos dominant yoki retsessiv tipda irsiylanadigan belgilarga doir masalalar yechish» mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusining maqsadi ta'lim sifatini boshqarish orqali darsda talabalarning yangi tushuncha va ko'nikmalarini, fikrlash doirasini boyitish maqsadida mavzuga doir ma'lumotlar yaxshi yoritilgan, taqdimot (slyayd)da rangli rasmlar va ma'ruza asosida savollar keltirilgan.

Odamda irsiylanish tiplari va genetik kasalliklar masalasi tibbiyot va biologiyaning eng dolzarb muammolaridandir. Dars materiallari aynan shu amaliy, hayotiy ahamiyatga ega masalalarni (masalan, dominant yoki retsessiv kasalliklarning avloddan avlodga o'tishini) tushunishga yordam beradi.

Materiallar mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan. Avval nazariy asos (Mendel qonunlari, dominantlik/retsessivlik tushunchalari) eslatib o'tilgan, so'ngra inson uchun xos bo'lgan belgilarga doir turli xil murakkablikdagi masalalar namunalar bilan keltirilgan. Bu esa talabalarda mavzuni bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini beradi.

A.A. Ergashev tomonidan tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi oliy ta'lim sohasidagi islohatlar va bugungi kun talablarini hisobga olib tuzilgan. Ochiq darsi mavzusini amalda foydalanishni tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**"Biologiya va qishloq xo'jalik
maxsulotlari texnologiyalari"
kafedrasi dotsenti**



Xalmuratov M.A.